

HAYOTOVA NAFISA ZAKIROVNA

Bukhara State University,
Department of National Ideology,
Fundamentals of Spirituality and Legal Education
Uzbekistan
khayotova.nafisa@bk.ru

ISSUES OF REPAIR AND MAINTENANCE OF HISTORICAL AND CULTURAL MONUMENTS IN BUKHARA

Annotation: This article discusses the issues of repair and preservation of historical and cultural monuments in Bukhara. To this day, the beauty of the city of Bukhara, rich in historical monuments, castles, madrasas, mosques and mausoleums are adding splendor. During the years of independence, many of the city's ancient monuments and architectural monuments have been restored and regained their ancient appearance. Especially the repair and restoration work was carried out on the occasion of the 2500th anniversary of the city of Bukhara. Although cultural heritage sites are repaired every year according to the plan, there are many facilities in need of repair and restoration. The importance of preserving the architectural monuments that have been preserved to this day, the timely repair of them and the restoration of the ancient appearance of the city. In the article Resolution of the President of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoyev dated December 19, 2018 "On measures to radically improve the activities in the field of protection of tangible cultural heritage" and paragraph 10 of this resolution are included in the UNESCO World Heritage List. - Historical areas of the republic are included in the list of specially protected historical and cultural areas. Also, the Law "On protection and use of cultural heritage sites" Chapter VI of the Law of the Republic of Uzbekistan establishes a number of norms concerning specially protected historical and cultural areas. Coordination with the UNESCO World Heritage Center has been established in the implementation of planned construction and improvement projects and in September 2020, the World Heritage Center issued a positive opinion on the design of the planned facilities in the Bukhara Historical Center.

Keywords: architectural monuments, Bukhara historical center, UNESCO, restoration, tree of life, bouquet, laurel, baked brick, ICESCO, Saint Boboyi Poradoz.

ВОПРОСЫ РЕМОНТА И СОДЕРЖАНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ В БУХАРЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы реконструкции и сохранения памятников истории и культурного наследия в Бухаре. На протяжении веков красоту Бухары своим величием дополняют замки, медресе, мечети и мавзолею. За годы независимости многие исторические памятники и памятники архитектуры города были отреставрированы и обрели свой древний облик. Особенно ремонтно-реставрационные работы были проведены по случаю 2500-летия города Бухары. Несмотря на то, что объекты культурного наследия ежегодно ремонтируются по плану, остается много объектов, нуждающихся в ремонте и реставрации. Обоснована важность сохранения сохранившихся до наших дней архитектурных памятников, своевременный их ремонт и восстановление древнего облика города. В статье,

представлено Постановление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева от 19 декабря 2018 года «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в области охраны объектов материального культурного наследия», где в пункте 10 настоящего постановления гласит о включения памятников в Список всемирного наследия ЮНЕСКО. Исторически культурные территории республики включены в перечень особо охраняемых мест. Также Закон Республики Узбекистан «Об охране и использовании объектов культурного наследия», Глава VI, устанавливает ряд норм, касающихся особо охраняемых историко-культурных территорий. Налажена работа с Центром всемирного наследия ЮНЕСКО в реализации запланированных проектов строительства и благоустройства. В сентябре 2020 года Центр всемирного наследия выдал положительное заключение на проектирование планируемых объектов в Историческом центре Бухары.

Ключевые слова: памятники архитектуры, исторический центр Бухары, ЮНЕСКО, реставрация, древо жизни, букет, лавр, жженный кирпич, ICESCO, Святой Бобой Порадоз

BUXORO SHAHRIDA TARIXIY-MADANIY OBIDALARNI TA'MIRLASH VA SAQLASH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro shahrida tarixiy-madaniy obidalarni ta'mirlash va saqlash masalalari haqida fikrlar bildirilgan. Tarixiy obidalarga boy bo'lgan Buxoro shahrining go'zalligiga bugungi kunga qadar qal'a, madrasa, masjid va maqbaralar ko'rk qo'shib kelmoqda. Istiqlol yillarida shahardagi qadimiy obidalar va me'moriy yodgorliklarning ko'p qismi ta'mirlanib, o'zining azaliy qiyofasiga ega bo'ldi. Ayniqsa ta'mirlash va restavratsiya ishlari Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan. Har yili reja asosida madaniy meros ob'ektlarida ta'mirlov ishlari olib borilsada, ta'mirlash va restavratsiyaga muhtoj ob'ektlar juda ko'p. Zero, bugungi kungacha saqlanib kelayotgan me'moriy obidalarni asrab-avaylash, ularni o'z vaqtida ta'mirlash ishlarini olib borish hamda shaharning qadimiy qiyofasini tiklash borasidagi masalalar muhimdir. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 19 dekabrda «Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori va bu qarorning 10-bandiga asosan YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko'ra kiritilgan respublikadagi tarixiy hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanishi belgilanganligi, ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari, Madaniy meros departamenti hamda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirishi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining VI bobi alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarga oid qator normalar belgilangan. Rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish loyihalarini amalga oshirish jarayonida YUNESKOning Butunjahon merosi markazi bilan kelishuvga erishildi va 2020-yil sentabr oyida Butunjahon merosi markazi tomonidan Buxoro tarixiy markazida rejalashtirilgan obyektlarni loyihalash bo'yicha ijobiy xulosa berilgani aytilgan.

Kalit so'zlar: me'moriy yodgorliklar, Buxoro tarixiy markazi, YUNESKO, restavratsiya, hayot daraxti, guldasta, lojuvard, pishiq g'isht, ICESCO, avliyo Boboy Porado'z.

Buxoro Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan bo'lib, jahon tamaddudi rivojlanishida katta hissa qo'shgan yirik savdo markazlaridan biri sifatida tan olingan. Asrlar davomida qad ko'tarib kelayotgan qal'a, madrasa, masjid va maqbaralar shaharning go'zalligiga ko'rk qo'shib kelmoqda. Mustaqillik yillarida shahardagi qadimiy obidalar va me'moriy yodgorliklarning ko'p qismi ta'mirlanib, o'zining azaliy qiyofasiga ega bo'ldi. 1991 yilda Buxoro shahri YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Qadimiy Buxoroning saroy va masjidlari, maqbarayu minoralari bugungi kunga qadar o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Xususan, maydoni 216 gektar, muhofaza hududi 339 gektarni tashkil etgan "Buxoro tarixiy markazi" 1993 yilda Kolumbiyaning Kartagena shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO Umumjahon merosi qo'mitasining 17-sessiyasida YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga 602-raqam ostida jahon o'tmish obidalari ro'yxatiga kiritildi [1]. Buxoro shahrining jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan alohida o'rnini hisobga olgan holda, YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995-yil oktyabr-noyabr oylarida Parijda o'tgan 28-sessiyasi "Buxoro shahrining 2500 yilligi yubileyiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qildi. Qaror asosida 1997 yilda YUNESKO rahbarligida shaharning 2500 yillik yubileyi jahon jamoatchiligi vakillari ishtirokida o'tkazish bo'yicha Respublika tashkiliy qo'mitasi tuzildi. Yubiley arafasida shaharda keng ko'lamlil qurilish va bunyodkorlik ishlari bilan birga obodonlashtirish, tarixiy obidalarni ta'mirlash ishlari olib borildi.

Buxoro vohasida 800 dan ziyod me'moriy obidalar mavjud. Shaharning o'zida 292 ta madaniy meros ob'ektlari davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 70 tasi respublika va 222 tasi mahalliy ahamiyatga molik madaniy meros hisoblanadi [2]. Shaharning 118 ta tarixiy obidalari YUNESKOning Butunjahon madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. Ushbu saqlanib qolgan tarixiy meros turli davrlarda bunyod etilgan, yigirma besh asr mobaynida me'morchilik rivojini namoyon etadigan inshootlarning nodir majmuasini o'zida jamlagan. Ular Buxoro viloyati madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi.

2001 yilda "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" qonun qabul qilindi [3]. Shu qonun asosida 2002 yil 29 iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish hamda tartibga solish, tarix va madaniyat yodgorliklarini har tomonlama o'rganish, ommalashtirish va targ'ib qilish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida qadimiy shaharlarda, shu jumladan Buxoro shahrida ham Idoralararo kommissiya tuzilib, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ta'mirlash ishlari olib borildi. Istiqolning dastlabki yillaridan boshlab, madaniy-meros ob'ektlarini saqlash, muhofaza qilish masalalariga jiddiy qaralgan.

Bugungi kunda Buxoro shahrining tarixiy xududining faqat 1/3 qismigina saqlanib qolingan. Sovet hukumatining "yangicha" shaharsozlik borasidagi siyosati davrida "eski" shaharning g'arbiy va shimolida tarixiy madaniy-meros inshootlari butunlay vayron qilingan va bu yerda faqat asosiy tuzilmaviy aloqalar saqlanib qolingan.[4] Biroq bugunda shaharning g'arbiy qismidagi tarixiy xududida reja asosida kam qavatli qurilish binolari barpo etilib, an'anaviy turar-joy muhitini yaratish borasida bosqichma-bosqich tiklash ishlari olib borilmoqda. Tarixiy xudud shaharning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shaharning janubiy-sharqida ana'naviy turar-joy maydoni zamonaviy jamoat va turar-joy binolariga bevosita bog'lanib ketgan. G'arbiy va janubiy g'arbiy qismida zamonaviy binolar tarixiy zonadan ancha uzoqda joylashgan. Bu yerda "eski" shaharning chegarasi-shahar devori qoldiqlari yaxshi saqlangan.

Buxoro shahrini o'rab olgan qadimiy qal'a va undagi darvozalar asrlar davomida Buxoro shaharsozligi va me'morchiligining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Lekin sovet hukumatining 1920 yildagi hujumi va totalitar hukmronlik tizimi olib borgan siyosati, shaharsozlikda milliy qadriyatlarga e'tibor berilmagani, shaharning tarixiy obidalarini ta'mirlashga davlat byudjetidan yetarli miqdorda mablag'ning ajratilmagani sababli 12 kilometr uzunlikdagi qal'aning bir necha o'n metri, qadimiy darvozalardan atigi ikkitasining qolgani achinarli holatdir. Shu sabab mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tarixiy madaniy-yodgorliklarni ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va o'zining qadimiy asl qiyofasini saqlash borasida amaliy ishlar qilindi. Buzib tashlangan qadimiy shahar darvozalarini tiklash uchun ham 2009 yilda me'mor Maxmud Axmedov rahbarligida loyiha ishlab chiqildi [5]. Shu bilan birga me'mor Ismat Muhsinov arxiv materiallari va eski fotosuratlariga tayanib, rus olimlari [6] tayyorlagan sxemalarga aniqlik kiritib, Buxoro darvozalari haqida ko'pgina adabiyotlarda bayon etilganidek 11 ta darvozani, hamkasbi Komil Ikromov bilan birgalikda XVIII-XIX asrlarda Buxoro shahri darvozalari joylashgan xududlar xaritasini yaratdi. Shayx Jalol, Samarkand, Hazrati Imom va Sallohona darvozalari qurilishini loyihalashtirishda bu obidalarning azaliy joyida bunyod etilishi va shaharning qadimiy qiyofasini yaratish maqsad qilib qo'yildi. Shayx Jalol darvozasining yangidan tiklangan shahar qal'a devoriga va Xo'ja Ismat Buxoriy ziyoratgohiga, yoxud Hazrati Imom darvozasining Abu Havs Kabir me'moriy majmuiga uyg'unlashib ketgani bu boradagi ijodiy izlanishlarning samarasidir. Samarqand darvozasi yonida hunarmandchilik markazining bunyod qilinishi, qurilishi poyoniga yetgan Sallohona darvozasiga tutash hududda yaqinda barpo etilgan ulug' avliyo Boboyi Porado'z qadamjosi ham shahar ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda.

Aytish joizki, shahardagi tarixiy obidalarga e'tibor istiqloqlarning dastlabki yillaridan boshlandi. Asosan Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan 1997 yillarda ko'pgina madaniy meros ob'ektlariga restavratsiya va ta'mirlov ishlari olib borilgan. Qadimda shahar markazi hisoblangan Ark qal'asidan boshlab, ta'mirtalab madrasa, masjid hamda maqbaralarda ta'mirlov ishlari avj oldi. Jumladan, Ark qal'asida keng ko'lamlı restavratsiya ishlari amalga oshirilib, Ark ichkarisidagi taxt joylashgan hovli ta'mirlandi va qulab tushgan devor qismlarini ta'mirlash ishlari nihoyasiga yetkazildi, "Go'riyon" darvozasi ham qayta tiklandi. Xuddi shunday Poyi Kalon majmuasida ham, uning tarkibiga kiruvchi Mir Arab madrasasi, Kalon Minorasi, Kalon masjidida ham ta'mirlov ishlari olib borildi. 1997 yilda Mir Arab madrasasining bosh fasadi, oldingi qismi qayta ta'mirlandi. Madrasa peshtog'i va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi. 2015 yilda Miri Arab madrasasi Islom taraqqiyot bankining 200,0 mln. so'mlik mablag'lari hisobidan qayta ta'mirdan chiqdi.

Ta'mirtalab madrasalardan biri Rashid madrasasida ham hozirda ta'mirlov ishlari rejalashtirilgan. Rashid madrasasi XIX asr, mang'itlar hukmronligi davrida choy savdosi bilan shug'ullangan boy afg'on savdogari Rashidbek rahnamoligida bunyod etilgan madrasadir. Madrasa Buxoro shahrining eski shahar qismida, Bahovuddin ko'chasining Hamid Olimjon mahallasida joylashgan bo'lib, arxitektura yodgorligi Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatiga kiradi va bugungi kunda turistik xizmatlar ob'ekti hisoblanadi. 2002 yilda YUNESKO Umumjahon merosi qo'mitasining tegishli qaroriga asosan "Rashid" madrasasini restavratsiya qilish maqsadida 22,0 ming AQSh dollariga yaqin xalqaro moliyaviy ko'mak ajratildi. So'nggi yillarda madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va restavratsiya ishlari bilan birga xalqaro tashkilotlarning grant mablag'larini jalb qilish bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda. 2021 yilda Rashid madrasasini restavratsiya va konservatsiyaga oid ishlarni amalga oshirish maqsadida YUNESKONing O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan 300,0 ming AQSh dollari miqdoridagi grant mablag'lari jalb etildi[7]. Madrasani ta'mirlash va saqlash bo'yicha loyiha "Madaniy meros LITI" loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib,

2021- yilning 19 –fevral kuni Madaniy meros departamenti ekspertlari, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi vakillari, viloyat madaniy meros boshqarmasi mutaxassislari, mahalliy usta-restavratorlar va loyiha mualliflari tomonidan madrasaning hozirgi holati o'rganildi va loyiha hujjatlariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Restavratsiya va konservatsiya ishlari 2022 – yilning oxiriga qadar yakunlanishi rejalashtirilgan bo'lib, ta'mirlash va tiklash ishlari yetarli tajribaga ega mahalliy usta-restavratorlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'mirlash ishlari yakunlangandan so'ng, madrasada “Buxoro shashmaqomi markazi” tashkil etish rejalashtirilgan.

Buxoro shahrining eng go'zal va noan'anaviy inshootlaridan biri Samoniylar maqbarasi bo'lib, Markaziy Osiyodagi pishiq g'ishtdan bino etilgan eng qadimiy inshootlardan biridir. Maqbara X asrda bunyod etilgan. Maqbara tepasi yarim aylana shaklida qurilgan bo'lib, maqbaraning to'rtala tomoni ham bir xil chordara shaklida, burchaklari ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofida to'rtta qubba o'rnatilgan. Bu ifodali shakllar afsonaviy ramziy ma'nosiga ko'ra, kub barqarorlik ramzi, ona zamin ramzi, gumbaz-osmoni falak ramzi, ularning birlashmasi – olam birligi ramzidir. Maqbaraning to'rtala tomonida murakkab yechimli ravoqqa o'rnatilgan eshiklar mavjud. Quyosh nurlarining tushish burchagi o'zgarishi bilan Samoniylar maqbarasining tashqi qiyofasi ham o'zgaradi. Maqbara devorlari ichki tomondan ham, tashqi tomondan ham tikka, ko'ndalang va to'g'ri burchak ostida terilgan. Garih shakllar mukammalligi jihatidan maqbarani dunyo me'morchiligining nodir namunasi aylantirgan hisoblanadi. 1927-yilgi arxeologik qazishma davrida xona sathida 2 ta yog'och sag'ana borligi aniqlandi. Ismoil Somoniy maqbarasi IX asrda Buxoroda me'morchilik san'ati, binokorlik texnikasining naqadar yuksakligini va rivojlanganligini ko'rsatib, samoniylar davridan boshlab, binokorlikda yuqori sifatli pishgan g'isht, albastrli qorishmalar ishlatilgan. 1997 yilda boshqa madaniy yodgorliklar kabi bu inshoot ham ta'mirdan o'tdi. 2004 yilda ham Ismoil Somoniy maqbarasida ta'mirlash-tiklash va restavratsiya ishlari olib borildi.

Buxoro shahri tarixiylikini saqlashning asosi bu mavjud madaniy meros ob'ektlarini o'z vaqtida ta'mirlash va restavratsiya ishlarini olib borish muhimligini ko'rsatadi. Har yili Buxoro shahri tarixiy obidalarini ta'mirlash va restavratsiya ishlari olib borilsada, shaharda ta'mirtalab obidalar juda ko'p. Ma'lumotlarga ko'ra, respublika va mahalliy ahamiyatga molik bo'lgan Buxoro shahridagi Xoja Qurbon madrasasi, Ibrohim Oxund madrasasi, Mir Said Kamol madrasasi, Kundjak madrasasi, Mirzo Hamdam madrasasi kabi 30 dan ortiq madrasalar, 50 dan ortiq masjidlar, 10 dan ortiq karvon saroylar ta'mirtalab holatdadir[2]. Jumladan, Abdullazizxon madrasasi shu obidalar qatoriga kiradi. Ushbu madrasa 1652 yilda Buxoro xoni, ashtarxoniylar vakili Abdulazizxon sharafiga Ulug'bek madrasasi qarshisida bunyod etilgan bo'lib, biroq ko'lami va hashamati bilan undan ancha ustun turadi. Abdulazizxon madrasasi badiiy bezagi boyligi Buxoro me'moriy obidalarida ichida alohida o'rin tutadi. Madrasa shiftini kundal (ichki devorlarni bo'rtma yuzaga zarhal berib naqsh ishlash) usulidagi naqshlar bezab turadi. Tashqi bezagida guldondagi gullar tasviri tushirilgan islamiy naqshlar ustunlik qiladi. Sipo garih naqshlar o'rnida bu yerda ajdaho va Semurg' qush singari afsonaviy jonivorlar tasvirlaridan ham foydalanilgan[8].

1997 yilda Abdulazizxon madrasasi YUNESKO tashkilotining Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. Markaziy Osiyo arxitekturasining “Toj Mahali” bo'lgan Abdulazizxon madrasasi hozirgi kunda restavratsiyaga muhojir. 1997 yilda madrasani ta'mirlash jarayonida ba'zi bir xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Hozirda inshootni yoriqlari, singan va ko'chgan joylari bilan saqlashga harakat qilinmoqda. Ashtarxoniylar davrida qurilgan bu me'moriy obida lojuvard koshin, qabariqli mayolika, marmarga o'yib ishlangan naqsh, ganch o'ymakorligi va qabariq faktura ustiga yupqa oltin varaqlar qoplanib bezalgan o'ta murakkab ansambldir. Abdullazizxon madrasasini qurishda madrasa tarkibidagi qishki masjidda mohir ustalar bo'yoqlar o'yinidan foydalangani va kunning ma'lum bir vaqtida, aniqrog'i

quyosh nuri tushgan pallada u yerda sallali nuroniy bir kishi qiyofasi ko'rinishini, kunning boshqa vaqtida bu surat "goyib" bo'lishini ko'rish mumkin[9]. Semurg', ajdarho, to'rg'ay va daraxtlarning koshinga tushirilgan tasviri o'ta murakkab bo'lib, ichki devorda "guldasta" va "hayot daraxti" naqshlari tasviri o'chgan. Ammo o'chgan izlari qolgan. Mutaxassis me'mor Abdumalik Turdiyevning aytishicha, Markaziy Osiyo me'morchiligida ilk bora sariq rang qo'llanilgan bu murakkab me'morchilik ansamblida madrasani ta'mirlash ishlari uchun katta mablag' talab qilinishi, oltin qismini ta'mirlash uchun Germaniya va Italiyadan sanoat roboti keltirish kerakligi, lojuvard koshin ishlab chiqaradigan yagona ustaxona Mashhad shahrida ekanligi, marmar lavhlarni maxsus epoksid va baliq suyagidan bo'lgan qorishma bilan mustahkamlaydigan mutaxassislar Italiyaning o'zida kamligini aytib o'tadi.

Inshootni tarixiylikini saqlash maqsadida binoning yoriqlari, singan va ko'chgan joylari bilan saqlashga harakat qilinmoqda. Hozirda madrasa hovlisida sayyohlar uchun milliy musiqa va folklor tomoshalar ko'rsatiladi hamda binoning shimoli-sharqiy burchagidagi miyonsaroyda Buxoro yog'och o'ymakorligi namunalaridan iborat ko'rgazma ham tashkil etilgan.

Buxoro qadimdan Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan shahar bo'lgani hammamizga ma'lum. XX asr boshlarida Buxoroda 67 ta karvonsaroy bo'lib, ular yirik savdo-sotiq va tijorat markazi sifatida xizmat ko'rsatgan. Bugungi kunga qadar Buxoro viloyati hududida saqlanib qolgan 14 ta karvonsaroy Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish mintaqalararo davlat inspeksiyasi ro'yxatiga kiritilgan [10]. 2005 yilda "Fathullojon", "Ayozon", "Ahmadjon" va "Mirzo Ulug'bek Tamokifurush" karvon saroylarida Fransiyaning Buyuk ipak yo'lidagi karvon saroylar assosiyatsiyasi tomonidan restavratsiya va qayta tiklash ishlari olib borilgan bo'lsada, turistik marshrutda joylashgan mazkur karvonsaroylar hozir rekonstruktsiya va kapital ta'mirga muhtojdir. 2019 yilda karvonsaroylarning aksariyati qarovsizlikdan, ta'mirlash hamda restavratsiya uchun kerakli mablag' ajratilmagani sababli nuray boshlaganligi aniqlandi. Ayrimlarining yon-atrofi, hovlisi chiqindixonaga aylantirilgan. Devorlariga har xil kimyoviy bo'yoqlar bilan xorijiy so'zlar yozib tashlangan. "Rashid", "Fathullaxon", "Jo'rabek" va "No'g'ay" karvonsaroylari achinarli ahvolga bo'lib, asl ko'rinishini yo'qotish arafasida turibdi. Ta'kidlash kerakki, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish bu faqatgina inspeksiya xodimlarining vazifasi bo'libgina qolmay, bugungi kunda keng jamoatchilik, tegishli idoralar va mutasaddi tashkilotlar sa'i-harakati hamda ma'suliyatiga bog'liq. Shu qatori tarixiy shaharlarni asl qiyofasini saqlash, bu o'z-o'zidan turizm sohasini rivojlanishiga asos bo'ladigan omildir. Bu soha esa davlat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, jahon hamjamiyatining O'zbekistonga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi.

2500 yillik boy tarixi davomida Buxoroda juda ko'p sulolalar hukmronlik qilgan, buyuk tarixiy shaxslar yashab o'tgan. Hukmdorlar, mansabdor boylar va tarixiy shaxslar tomonidan madrasayu masjidlar, maqbaralar, savdo markazlari, karvonsaroylar, hammomlar barpo etilgan. Shunday ob'ektlarning katta qismi tarixda sodir bo'lgan turli tabiiy ofatlar, bosqinlar sababli vayron etilgan yoki yillar davomida qumlar ostida qolib ketgan. Buxoroda bugungi kunga qadar tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan inshootlar topilayotgani shaharning o'rganilmagan hamda ochilmagan qirralari ko'pligini ko'rsatadi. Masalan, 2019 yil shaharning Mehtar Anbar ko'chasida tashlandiq hovlini sotib olgan tadbirkor qurilish jarayonida qadimiy inshoot qoldiqlarini aniqlaydi. Xududga arxeologlar jalb qilinib 6 metr chuqurlikda qadimiy inshoot ya'ni aniqlanishicha 6 so'tixdan ziyod maydonni egallagan Kavshi olak hammomi qoldiqlari topildi [11]. Hammom XV-XVI asrlarda qurilganligi haqida fikrlar mavjud. Bugungi kunda hududda o'rganish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 19 dekabrda «Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida» qarori [12], bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Qarorning 10-bandiga asosan YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko'ra kiritilgan respublikadagi tarixiy hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanishi belgilandi. Ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari Madaniy meros departamenti hamda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirishiga oid tartib o'rnatildi [13]. Shuningdek, “Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunining VI bobi alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarga oid qator normalar belgilangan. Rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalarini amalga oshirishda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish yo'lga qo'yildi. Masalan, 2020 yilda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish uchun 11 ta loyiha Umumjahon merosi markaziga yuborilgan. 2020 yil sentabr oyida Buxoro tarixiy markazida rejalashtirilgan ob'ektning loyihasi yuzasidan Umumjahon merosi markazining ijobiy xulosasi olindi.

2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Madaniy meros agentligi va Buxoro viloyat hokimligi bilan hamkorlikda Islom olamining ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO)ning Islom Olami Merosi ro'yxatiga kiritish maqsadida Buxorodagi 7 ta madaniy meros ob'ektlarning tegishli nomzodnoma hujjatlari tayyorlanib Islom Olami Merosi Qo'mitasiga taqdim etilgan edi. 2021 yil 29 iyun kuni Islom Olami Merosi Qo'mitasining to'qqizinchi onlayn majlisi bo'lib o'tadi [10]. Majlisda Buxoro 2020 yilda «Islom olami madaniyati poytaxti» deb e'lon qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi nomidan taqdim etilgan nomzodnoma hujjatlari ko'rib chiqilib, Buxorodagi 7 ta: Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Bakr va Bahouddin Naqshband majmualari, Mag'oki Attor masjid, Poi-Kalon ansambli, Qadimgi Poykent shahri qoldiqlari va Tosharoy madrasalari ICESCONing Islom Olami Merosi ro'yxatiga kiritildi [11]. Ma'lumotlarga ko'ra, onlayn o'tkazilgan majlisda jahonning turli davlatlarining shaharlaridagi tarixiy obidalar Islom Olami Merosi ro'yxatiga kiritildi. Jumladan, Iordaniyadagi 1 ta, Erondagi 5 ta, Bangladeshdagi 3 ta, Jazoirdagi 1 ta, Iroqdagi 5 ta, Falastindagi 7 ta, Qatardagi 3 ta, Kamerundagi 1 ta, Liviyadagi 16 ta, Misrdagi 3 ta, Marokashdagi 6 ta me'moriy tarixiy yodgorliklar ham ro'yxatdan joy olgan. Shuningdek, kelajakda ushbu madaniy meros ob'ektlarini restavratsiya qilish va ularni o'rganish, xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish bo'yicha ICESCO va Islom Olami Merosi Qo'mitasi bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish yuzasidan kelishib olindi.

2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning topshirig'iga ko'ra, alohida muhim, ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarni rekonstruktsiya, restavratsiya qilish va mukammal ta'mirlash direktsiyasining mablag'lari hisobidan restavratsiya va konservatsiya qilish maqsadida Buxoro viloyatidagi o'ta og'ir ahvolda bo'lgan 40 ta madaniy meros ob'ektlarining ro'yxati shakllantirildi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 3 mart 2021 yilda 191-sonli “Moddiy madaniy meros ob'ektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” [12] qarori qabul qilindi. Qarorda Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilishni kuchaytirish, moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish holatlarida tegishli ma'muriy va jinoiy javobgarlik kuchaytirildi. YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko'ra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanishi hamda ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari Departament hamda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirilishi belgilandi.

Xulosa qilsak, Buxorodagi tarixiy madaniy yodgorliklarga bo'lgan e'tibor yillar sayin ortib bormoqda. YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko'ra kiritilgan Buxoro shahri alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hudud sifatida belgilab qo'yilishi ushbu hudud huquqiy maqomiga aniqlik kiritildi va tarixiy shaharni muhofaza qilishning qonuniy asoslari yaratildi. Ayniqsa, so'nggi 5 yil mobaynida osori atiqalarni dunyo miqyosida targ'ib qilish, ularni turizm marshrutlariga kiritish hamda yangi tarixiy-madaniy qiymatga ega bo'lgan maskanlarni topish va o'rganish, tarixiy ob'ektlarni saqlash, ta'mirlash hamda restavratsiya ishlariga e'tibor kuchaytirildi. Shu qatori fuqarolarning tarixiy- madaniy meros ob'ektlarini asrab avaylash va kelajak avlodga yetkazishga bo'lgan dunyo qarashi, ilmi oshganini ko'rishimiz mumkin.. Zeroki, vatanparvarlik bu o'z tarixini bilishdan hamda sevishdan, faxr tuyg'usini tuyishdan boshlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.Ibrohimov. Buxoroning taarixiy qiyofasi saqlanib qoladimi. Xalq so'zi. 12 fevral, 2021 y.
2. Buxoro shahar pasporti. B., 2020.
3. www.lex.uz
4. Город Бухара. Бухарская область. Генеральный план. Пояснительная записка. Т. 2019.
5. Н.То'rayev. Buxoro tarixi. "Durдона" nashriyoti. B.,2020, 250-b.
6. О.А.Сухарева. К истории городов Бухарского ханства. "Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси". Т.,1958.; О.А.Сухарева. Квартальная община поездне феодального города Бухары."Наука", М. 1976; О.А.Сухарева. К вопросу об исторической топографии г.Бухары X- XII вв, Труды АН ТаджССР. т. XXVII, 1954.; И.И.Умняков. К вопросу об исторической топографии Бухары, Сб. Туркистанского восточного института в честь А.Э. Шмидта, Т., 1923.; Л.И.Ремпель. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары: Бухарские записи.-Т.: Изд.лит. и искусства. 1981.-304 с.
7. <http://www.buxoro.uz/post/tarixiy-obidalar-49813>
8. O'zbekiston. Shaharlar va afsonalar. "Davr nashriyoti", T.,2014. 77-b.
9. <https://xs.uz/uz/post/abdulazizkhon-madrasasi>
10. <https://www.icesco.org/en/2021/06/30>
11. I.Ibrohimov. Buxorodagi qaysi yodgorliklar YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi mumkin? "Xalq so'zi".18 iyun 2020.
12. <https://lex.uz/docs/4113465>
13. А.Аслонов. Маданий мерос объектлари давлат химоясида. Халқ сўзи. 21 октябрь 2020., 2-б.